O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
G.Rixsiyeva
____________
2025-yil "30" 06

# ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI

# FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohalari:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar<br>300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohalari:** | 230 000 – Tillar<br>320 000 – Jurnalistika va axborot |
| **Mutaxassisliklar:** | 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (sharq tillari bo‘yicha);<br>70230202 – Sinxron tarjima (sharq tillari bo‘yicha)<br>70230401 – Kompyuter lingvistikasi<br>70320101 – Jurnalistika |

**Toshkent - 2025**

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti
instituti direktori: ______________ X.V.Mirzaxmedova
(imzo)

Tarjimashunoslik, tilshunoslik va
xalqaro jurnalistika oliy maktabi boshlig'i: ______________ S.T.Mustafayeva
(imzo)

ARM boshlig'i: ______________ M.Yuldasheva
(imzo)

| Fan/modul kodi<br>ITM1104 | O'quv yili<br>2025/2026 | Semestr<br>1 | YeCTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Ilmiy tadqiqot metodologiyasi | 48 | 72 | 120 |

2.

## I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan **maqsad** – ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash, tadqiqot mavzusining muhimligi, yangiligi, fan va jamiyat taraqqiyotiga qo'shajak ahamiyatini ilg'ab olish, ilmiy ish uchun material to'plash va uni tizimlashtirish, kutubxona va fondlarda ishlash, ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqish to'g'risida ma'lumot berishdan iborat.

Fanning **vazifalari** – magistrlarga ilk manbalardan, yozma yodgorliklardan, o'zbek va chet tillaridagi adabiyotlardan foydalanish yo'llari, ularga havola berish usullari, tadqiqot uchun birlamchi, ilk manbalarni saylab olish, ulardan misollar yig'ish yo'l-yo'riqlari, tadqiqot tili va uslubi, ilmiy etika masalasi, ilmiy ishda plagiat (ko'chirmachi)likka yo'l qo'ymaslik, tadqiqotda himoyaga olib chiqilayotgan masalalarni, ishning ilmiy yangiligini ko'rsata bilish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi **University of Texas at Austin (ARWU 46, THE 51, QS 65)** xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

https://journalism.utexas.edu/sites/default/files/J380-Intro%20to%20Research%20Methods-Johnson.pdf

---

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Kirish. Ba'zi asos faoliyatlar va zaruriy bilimlar. Ishlash**

**shartlari**

"Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanining mazmuni, predmeti va vazifalari o'rganilayotgan sharq tilida yaratilgan o'quv va ilmiy adabiyotlar, fanning nazariy-metodologik manbalari haqida umumiy ma'lumotlar berishdan iborat. Til. Til va madaniyat. Tilning ijtimoiy hodisa sifatida xalq hayotida tutgan o'rni. Uning tarixiy taraqqiyoti va jahondagi tillar silsilasidagi o'rni.

**2-mavzu. Mavzu tanlash va uning dolzarbligi masalasi.**

Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash. Tadqiqot mavzusining muhimligi, yangiligi, fan va jamiyat taraqqiyotiga qo'shajak ahamiyatini ilg'ab olish.

Ilmiy tadqiqot metodini, yo'l-yo'riqlarini belgilab olish. Ilmiy mavzuga tegishli material yig'ish va uni saralash, ilmiy ish uchun kerakli bo'lganlarini bir tizimga solish. Ilmiy ish mundarijasini tuzish, mundarijada e'tibor qaratilmog'i kerak bo'lgan masalalar, mundarijaning yo'nalishini maqsadga muvofiq holda olib borish. Ilmiy adabiyotlardan foydalanish tartibi, ilmiy apparat, ilmiy qonun-qoidalarga rioya qilish.

Dissertatsiya yozish, ilmiy maqolalar yozish, monografiya ustida ishlash. Ilmiy ishlarga taqriz yozish yo'llari. Ilmiy ishlarga tanqidiy yondashuv. Tadqiqot yaratishda ulardan foydalana olish to'g'risida umumiy ma'lumot.

Kutubxona va qo'lyozma fondlarida, arxivlarda ishlash. Ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqish. O'zbek va chet tilidagi adabiyotlardan foydalanish yo'llari. Ularga havola berish prinsiplari.

Internet saytlaridan foydalanish va ularga havola etish yo'llari.

**3-mavzu. Ilmiy ish uchun material to'plash va uni tizimlashtirish.**

Tadqiqot uchun birlamchi manbalarni tartibga solish, ulardan misollar yig'ish yo'l-yo'riqlari. Yig'ilgan misollarni asl yozuvda berish, misollarni transkripsiya yoki transliteratsiyada berish usullari. Manba sahifasi va matn qatoriga ishora. Ilk manbani kodlashtirish masalasi.

Tadqiqotning tili va uslubi. Ilmiy uslub va uning o'ziga yarasha belgilari. Matn uslubining ravonligi, ilmiyligi. Uslubda aniqlik va ravonlikka e'tibor masalasi. Ishni hozirgi zamon tilshunosligi talablariga mos shaklda yaratish.

Tadqiqotda ilmiy atamalar (terminalogiya)ni qo'llash. Fanda qabul qilingan atamalar tizimi va ulardan foydalanish. O'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yasalgan atamalar tizimi. Ularni o'rnida qo'llay bilish.

**4-mavzu. Ilmiy ish mundarijasini tuzish.**

Ish mundarijasi, fasllar izchilligi, ularda bir butunlik hosil qilish. Mavzuni tarmoqlar bo'yicha fasllarga ajrata olish masalasi: yetakchi, muhim sohalarni bosh o'ringa olib chiqib, ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan masalalarni ishga kiritmaslik.

Ishning bob va fasllariga xulosa qilish. Xulosa uslubi.

Ilmiy adabiyotlarni, ilk manbalarni berish tartibi. Qo'shimcha (ilova)larni berish tartibi. Ularni ayni sohaga foyda berish-bermasligini to'g'ri belgilash.

Ilmiy tahrir va uning kuchi. Ish muhokamasi va uni uyushtirish. Ilmiy ishga

taqriz yozish yo'l-yo'riqlari. Ilmiy ishning muhokamasida fikr bildirish. Ishning yutuq va kamchiliklarini baholash. Fikr bildirishda ilmiy etikaga amal qilish.

**5-mavzu. O'zbek va chet tilidagi asarlarga havola berish prinsiplari.**

O'zga olimlardan fikr olganda, albatta, ularga ishora qilish. Ularga aql bilan baho berish. O'tmish olimlari yaratgan metodlarni hozirgi metodlarga qiyosiy ravishda solishtira bilish. Fan tarixida yaratilgan ishlarni hozirgi fan yutuqlari va metodologiyasi nuqtai nazaridan baholash.

Tadqiqotda himoyaga olib chiqilayotgan masalalarni, ishning ilmiy yangiligini ko'rsata bilish. Fanda tadqiqot olib borilayotgan sohada bajarilgan kashfiyotlarni takrorlamaslik, balki yaratilgan ishlar asosida uning ma'lum tarmog'ini takomillashtirish.

**6-mavzu. Atama (termin)lardan foydalanish masalasi.**

Tadqiqotda ilmiy atamalar (terminalogiya)ni qo'llash. Fanda qabul qilingan atamalar tizimi va ulardan foydalanish. O'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yasalgan atamalar tizimi. Ularni o'rnida qo'llay bilish.

**7-mavzu. Ilmiy etika masalasi. Ilmiy qonun-qoidalarga rioya qilish.**

Ilmiy etika masalasi. Ilmiy etikaga ko'ra dunyo fanida erishilgan yutuqlarni e'tirof etish. Ularga olimona munosabat bildirish. O'tmish va hozirgi zamon olimlarining ishlarini o'rnida baholash. Ilmiy ishda plagiat (ko'chirmachi)likka yo'l qo'ymaslik. O'zga olimlardan fikr olganda, albatta, ularga ishora qilish. Ularga aql bilan baho berish. O'tmish olimlari yaratgan metodlarni hozirgi metodlarga qiyosiy ravishda solishtira bilish. Fan tarixida yaratilgan ishlarni hozirgi fan yutuqlari va metodologiyasi nuqtai nazaridan baholash.

Tadqiqotda himoyaga olib chiqilayotgan masalalarni, ishning ilmiy yangiligini ko'rsata bilish. Fanda tadqiqot olib borilayotgan sohada bajarilgan kashfiyotlarni takrorlamaslik, balki yaratilgan ishlar asosida uning ma'lum tarmog'ini takomillashtirish. Buning bilan fanga yangilik olib kirish.

Ilmda tor doirada, o'z qobig'ida o'ralashib qolmaslik. Fanga keng miqyosda boqish masalasi.

**8-mavzu. Ilmiy ishda materiallardan foydalanish, manba masalasi.**

Tadqiqotning tili va uslubi. Ilmiy uslub va uning o'ziga yarasha belgilari. Matn uslubining ravonligi, ilmiyligi. Uslubda aniqlik va ravonlikka e'tibor masalasi. Ishni hozirgi zamon tilshunosligi talablariga mos shaklda yaratish.

Tadqiqotda ilmiy atamalar (terminalogiya)ni qo'llash. Fanda qabul qilingan atamalar tizimi va ulardan foydalanish. O'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yasalgan atamalar tizimi. Ularni o'rnida qo'llay bilish.

**9-mavzu. Ilmiy adabiyotlarni va qo'shimcha (ilova)larni berish tartibi.**

Dissertatsiya yozish, ilmiy maqolalar yozish, monografiya ustida ishlash. Ilmiy ishlarga taqriz yozish yo'llari. Ilmiy ishlarga tanqidiy yondashuv. Tadqiqot yaratishda ulardan foydalana olish to'g'risida umumiy ma'lumot.

Kutubxona va qo'lyozma fondlarida, arxivlarda ishlash. Ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqish. O'zbek va chet tilidagi adabiyotlardan foydalanish yo'llari. Ularga havola berish prinsiplari.

Internet saytlaridan foydalanish va ularga havola yozish yo'llari.

**10-mavzu. Tadqiqot protokolini tayyorlash.**

Kirish, rozilik, so'rovdan oldingi so'rovnoma, uchta jamoat muammosiga (masalan, shaxsiy muammoning ahamiyati, shaxsiy muammoning dolzarbligi, munosabat intensivligi, munosabat barqarorligi va munosabatning markaziyligi va muammoning pozitsiyasi). To'rtta shartdan biriga tasodifiy tayinlash, so'rovdan keyingi so'rovnoma, umumiy so'rovnoma uchun zarur bo'lgan umumiy ma'lumot (so'rovnomalar uchun zarur bo'lgan umumiy ma'lumot). bilim, muammoga oid siyosiy faoliyatda ishtirok etish niyati, masalalar bo'yicha fikrlar, siyosiy moyillik va demografik ma'lumotlar), brifing va kompensatsiya ma'lumotlari.

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

"Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanining mazmuni, spesifikasidan kelib chiqan holda amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'limda magistrantlarga quyidagi amaliy mavzular taklif etiladi:

1. Mavzu tanlashda e'tiborga olinadigan asosiy jihatlar
2. Tadqiqot mavzusining muhimligi, yangiligi, fan va jamiyat taraqqiyotiga qo'shajak ahamiyati.
3. Ilmiy apparat masalasi. Ilmiy apparatni kodlashtirish.
4. Tadqiqot tili va uslubi. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.
5. Ilmiy etika masalasi. Ilmiy etikaga ko'ra dunyo fanida erishilgan yutuqlarni e'tirof etish.Ilmiy tadqiqot metodini belgilab olish
6. Ilmiy adabiyotlardan foydalanish tartibi
7. O'zbek va chet tilidagi asarlarga havola berish prinsiplari
8. Ilmiy maqolalar yozish
9. Ilmiy ma'ruzalar tayyorlash
10. Taqrizlar yozish
11. Magistrlik dissertatsiyasi yozish
12. Ish muhokamasi va uni uyushtirish

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Magistr maqomini egallash maqsadida ilm olayotgan toliblar auditoriya mashg'ulotlari, interaktiv usullar yordamida ilm olishdan tashqari mustaqil ishlay olish omillarini ham bilishlari zarur. Shu maqsadda tilga oid muayyan

| | |
|---|---|
| | mavzular mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladi. Asosiy chet tilidagi mutaxassislikka oid ilmiy-nazariy adabiyotlar; ularni tarjima va tahlil qilish yo‘llari; mutaxassislikka oid terminlarni tasniflash va izohlash usullari; ilmiy soha terminlarini amalda qo‘llash mezonlari; asosiy chet tilidagi mutaxassislikka oid ilmiy manbalar, ilmiy jurnallar, fundamental tadqiqotlarning tahlili; o‘rganilayotgan chet tilida nashr qilingan asosiy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, sohaga doir izohli lug‘atlar va mutaxassislikning ilmiy markazlarida chop etilgan nashrlarga annotatsiya yozish yo‘llari; mutaxassislikka oid ilmiy-nazariy asarlarni nazariy jihatdan umumlashtirish va tanqidiy baholash prinsiplari shular jumlasidandir.<br>**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari**<br>1. Tanlangan tadqiqot mavzusi bo‘yicha yetakchi mutaxassislarning ilmiy ishlarini o‘rganish<br>2. Ilmiy tadqiqot va ilmiy maqolalarda fikrni bayon qilish sirlarini o‘zlashtirish<br>3. Tadqiqotga tortilgan ilmiy adabiyotlarga havolalar berishni o‘rganish<br>4. Bob, bo‘lim va ish so‘nggida xulosalar yoza olish malakasini shakllantirish<br>5. Dissertatsiya mavzusiga oid chet tilidagi ilmiy maqolalarni tarjima qilish<br>6. Chet tilidagi maxsus adabiyotlarni tarjima qilish<br>7. Nazariy adabiyotlarni tahlil qilish va ularga taqriz yozish<br>8. Ilmiy ma’ruza tayyorlash va uni taqdimotini o‘tkazish<br>9. Fan mavzulari bo‘yicha anketalar tuzish va assotsiativ eksperimentlar o‘tkazish<br>10. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarning mavzu va boblarini o‘rganib chiqish<br>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha magistrant-talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida ***talaba bilishi kerak***:<br>• Ilmiy tadqiqotning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni qo‘llanish ko‘lami haqida tasavvurga ega bilishi va ulardan foydalana olishi;<br>• Ilmiy adabiyotlarga havolalar bera olish;<br>• Ilmiy ish so‘ngida xulosalar yoza olish;<br>• Olingan nazariy bilimlarni asarlar tarjimasida qo‘llay ***bilishi kerak***;<br>• talaba leksik, semantik, frazeologik uslubiy matnlarni o‘ziga xosliklarini ona tili va chet tillarida inobatga olish malakasini egallashga imkon yaratishni bilishi va ulardan foydalana olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***. |

| | |
|---|---|
| | • talaba ilmiy ma'ruza tayyorlash va uni taqdimotini o'tkazish<br>• turli tadqiqot usullariga asoslangan maqolalarni aniqlash va tanqid qilish;<br>• bir necha turdagi savollarga tayangan holda anketa tuzish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 6. | **IX. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**<br><br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Asilova G.A. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari (uslubiy qo'llanma). – Toshkent, 2020.<br>2. Тронин В.Г., Сафиуллин А.Р. Методология научных исследований. (учебное пособие). – Ульяновск: УлГТУ, 2020.<br>3. Riazi A. Mehdi (ed.) Less Frequently Used Research Methodologies in Applied Linguistics. – Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2024.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.<br>4. Saifnazarov I., Muxtarov A., Boboyev A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TDIU, 2017.<br>5. Шермуҳамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик. – Т.: Fan va texnologiya, 2014.<br>6. Мокий М.С., Никифоров А.Л., Мокий В.С. Методология научных исследоваиий. Учебник. М.: Юрайт, 2014.<br>7. Pandey P., Pandey M.M. Research methodology: tools and techniques. – Buzau, 2015.<br>8. Poindexter, P. M., & McCombs, M. E. (2000). Research in Mass |

| | |
|---|---|
| | Communication: A Practical Guide. Bedford/St. Martin's.<br>**Scopusdan maqolalar**<br>1. Habu, A. A., & Henderson, T. (2023). Data subject rights as a research methodology: A systematic literature review. *Journal of Responsible Technology*, *16*, 100070. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666659623000136<br>2. Hazari, A. (2024). Introduction to research methodology. In *Research Methodology for Allied Health Professionals: A comprehensive guide to Thesis & Dissertation* (pp. 1-6). Singapore: Springer Nature Singapore. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-981-99-8925-6_1<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. http://www.ziyo.net<br>2. https://sciencedirect.com<br>3. https://research.com/research/how-to-write-research-methodology<br>4. https://www.scribbr.com/category/methodology/ |
| 7. | Fanning o'quv dasturi "Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrasida ishlab chiqilgan va 202__ yil "___"_________ dagi ____ -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br><br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 202__ yil "___" _____dagi ______ - sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>N.R.Ismatullayeva – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi dotsenti, PhD. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Q.Sh.Omonov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, f.f.d.<br>E.Z.Ochilov – O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori, f.f.n. |